

Viloyat hokimining onlayn qabulida 261 nafar fuqaroning 306 ta muammosi tinglandi



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov hududlardagi fuqarolarning murojaatlarini tinglash va hal etish samaradorligini oshirish, ularning uzoq yo'l bosib, sarson bo'lishlarini oldini olish maqsadida shahar va tumanlar studiyalari orqali onlayn qabul o'tkazdi.

Qariyb 4 soat davom etgan qabulda hududiy studiyalardan ishtirok etgan 261 nafar fuqaroning 306 ta masaladagi muammosi tinglandi. Fuqarolar tomonidan asosan, davolanish, uy-joy olish yoki qurish uchun subsidiya olish, yo'llarni ta'mirlash, ishga joylashish, o'zini o'zi band qilish uchun jihoz ajratish, elektr energiya va ichimlik suvi ta'minoti, kadastr, maktab va maktabgacha ta'lim tizimidagi muammolar va boshqa masalalar ko'tarildi.

Har bir murojaat mas'ullar va hududlar rahbarlari ishtirokida tinglanib, ularning 47 tasi qabul davomida hal qilib berildi. Ijrosi muddat va qo'shimcha o'rganish talab qiladigan 259 ta murojaat mas'ullarga yo'naltirilib, ijrosi nazoratga olindi.

Qabul so'ngida viloyat rahbari har bir murojaat shaxsan nazoratida bo'lishini, o'rganilmagan, ijrosi ta'minlanmagan murojaatlar nazoratdan yechilmasligi hamda murojaatlar ijrosiga bepisandlik va beparvolik bilan qaragan har qanday darajadagi rahbarlarga nisbatan keskin choralar ko'rilishini ta'kidladi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)